

XIX ASR RUS ADABIYOTIDA L. N. TOLSTOY HAYOTI VA IJOD YO'LINING TUTGAN O'RNI

Shaxnoza Buriyeva

Termiz davlat universiteti 3-kurs talabasi, Termiz, O'zbekiston

+998948940119, sh.b.alisherovna@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk rus adibi L.Tolstoy ijodi , uning rus adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Tolstoy XIX asr rus adabiyotida o'zining yangicha qarashlari , gumanizm va erkinlikni tarannum etuvchi realistik asarlari bilan yorqin iz qoldirgan.

Tayanch so'zlar: gumanizm, realistik, guberniya, dvoryanlar, epopeya tendensiya.

XIX asr rus adabiyotida o'zining yangicha qarashlari , gumanizm va erkinlikni tarannum etuvchi realistik asarlari bilan o'ziga xos yo'nalishga yo'nalish asos slogan ijodkor Lev Tolstoydir. Lev Nikolayevich Tolstoy 1828-yil 28-avgustda Rossiyaning Tula guberniyasida qadimiy dvoryanlar oilasida tug'ilgan. Kelib chiqishiga ko'ra yuqori tabaqa vakili bo'lgan yozuvchi buyuk rus shoiri Pushkin va knyaz Trubetskoylar bilan qarindoshligi bor. Tolstoy ikki yoshida onasidan, 9 yoshida otasidan judo bo'lib erta yetim qoladi. Shundan so'ng u ammasi , keyinchalik amakisi qo'lida tarbiyalanadi. 1844-1847- yillar mobaynida Qozon davlat universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida tahsil oladi. Ammo uning hayoti doim ham sokin o'tmagan , buning isbotini uning keying besh yillik hayoti urushlarda o'tganligidan ham bilish mumkin. Urush lavhalari va askarlarning maishiy turmushi Tolstoyning "Sevastopol hikoyalari" (1855) to'plamiga kirgan hikoya va ocherklarida o'z ifodasini topgan.

Tolstoyning ijodga kirib kelishi 50-yillarda boshlandi. Bolaligidan rus va arab xalq ertaklarini, A.S.Pushkin she'riyatini hamda Yusuf payg'ambar haqidagi Injil rivoyatlarini mutolaa qilib voyaga yetgan Tolstoy ijodini she'r yozish bilan boshladi. Uning birinchi yirik asari "Inson kamolotining to'rt davri" nomli avtobiografik asari hisoblanadi. Bu asar yozuvchining butun hayoti "Bolalik", "O'smirlik", "Yoshlik", "Yigitlik" davrlari alohida bo'limlarda jamlangan bo'lib, uning bunday kompozitsiya qo'llashi sharq mumtoz adabiyotidagi shoirlar ijodini eslatadi. Yozuvchi 1855- yilda Nekrasov, Turgenev, Chernishevskiy, Goncharovlar kabi buyuk rus yozuvchi, shoirlari bilan tanishadi. Ushbu uchrashuvlardan so'ng, dastlab liberallarning fikrini ma'qullab turgan Tolstoy tez orada o'zining pozitsiyasini mustahkamlab oldi. Uning fikricha, Rossiyani yanada rivojlantirish, yuksaltirish uchun xalqni ma'naviy qayta tarbiyalash, ma'rifatli qilish kerak. Buning uchun esa albatta yuksak saviyali ijod namunalari , badiiy asarlar yozilishi, ta'lim va tarbiyaga e'tibor kuchayishi kerak edi.

Umuman olganda, 50-yillar Tolstoy o'z asarlarida ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsilotlarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy-falsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Uning ijodida shakllana boshlagan bu ijodiy tamoyil

"Kazaklar" qissasi (1863)da, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu asarda o'z in'ikosini topgan xalq hayoti mavzusi va voqelikning epik tasviri Tolstoyning 60-yillar ijodida o'z ifodasini topadi. Aynan shu davrda yozilgan "Urush va tinchlik" romani rus va jahon adabiyoti xazinasida o'z o'rniga ega. "Urush va tinchlik" (1863—69) epopeyasi yozuvchining ijodiy kamolotga yetishganidan dalolat beruvchi asardir. Ayrim sovet adabiyotshunoslarining fikriga ko'ra Tolstoy bu asarni yozish orqali siyosiy muammolardan qochishga harakat qilgan, ammo bu asar haqida yakuniy xulosaga kelish uchun asos bo'la olmaydi, albatta. Asarda muallif avvalo, e'tiborini inson ruhiyati orqali gumanizmga qaratishni xohlaydi va buni tarixda yashab o'tgan bir ayol (Anna Karenina) obrazi orqali amalga oshiradi. Tolstoy "Urush va tinchlik" romanida o'z davrida ro'y bergan va o'zi shaxsan guvoh bo'lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805—07 va 1812—14 yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko'plab qahramonlar ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg'unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, 19-asr o'rtalarida epik asarlar davri tugadi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida keng yoyila boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa "Urush va tinchlik"dek epopeyaning maydonga kelishi uchun zamin yarata olmas edi. 1812-yilda Rossiyaning Napoleon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaqa va sinflarni dushmanga qarshi kurash shiori ostida birlashtirgani sababli, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyg'unlashga murojaat etishi "Urush va tinchlik" romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o'tadi.¹

Tolstoy ijodida ruhiy evrilishlar bo'lgan davr 70-yillardir. Bu davrada u ruhiy iztirob orasida yashadi va o'z hayot yo'li haqida mulohaza yuritdi. Shu jarayonda ayon bo'ldiki, insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va iqtisodiy holati bilan bog'liq zodgon qatlaminin tendensiyalari yolg'onga asoslangan. Uning bunday qarashlari 80-yillar davomida yozilgan "Iqromoma" (1880) va "E'tiqodim nimada?" (1884) nomli asarlarida o'z ifodasini topdi. Tolstoyning shu davrda yozgan asarlari orasida "Ivan Ilichning ulimi" (1886), "Kreyser sonatasi" (1889) qissalari, ayniqsa, e'tiborga molik hisoblanadi.

Tolstoy 80-yillarda dramaturgiya yo'nalishida ham ijod qilib, "Zulmat hokimiyati" (1886) dramasi va "Ma'rifat mevalari" (1890) komediyasini yozadi. Bu asarlarda qishloq hayoti odamlarning, shahar madaniyatining qishloqqa ko'rsatayotgan salbiy ta'siri katta badiiy kuch bilan tasvirlangan.

Tolstoy dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so'nggi yirik asarlaridan biri — "Tirilish" romani (1889—99)da o'z aksini topdi. Xayotda bo'lib o'tgan oddiy voqea — bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, ma'naviy asoslarini ochib tashlaydi. Mazkur asardagi kishilar taqdiri bilan voqealarning o'zaro chambarchas bog'liqligi masalasi "Hojimurod" (1896—1904) qissasining ham asosini tashkil etgan.

¹ <https://saviya.uz>

Tolstoy dindor yozuvchi sifatida kishilar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvir etibgina qolmay, o'zi ham jamiyat va kishilar hayotidagi bunday ziddiyat va mayllardan jarohatlanib yashagan. Yozuvchidagi murakkab ruhiy holat uning so'nggi asarlari ("Tirik murda", 1890; "Baldan so'ng", 1903 va boshqalar) da ham aks etgan. Tolstoy hayotining Yasnaya Polyana'dagi so'nggi kunlari ruhiy iztiroblarda o'tdi. U jamiyatning johil fikrlaridan qochib, 1910-yil Yasnaya Polyana tark etadi va yo'lda shamollab, vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://saviya.uz>
2. D. Quronov "Adabiyotshunoslik nazariyasi"
3. <https://moscps.uz>

